



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,
12-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	10
<i>Abilov Muslim Normuxammadovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati.....	14
<i>Bolqiyev Axmad</i>	
Jamiyat muhitida radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimini yaratish	17
<i>Axmedova Iroda Shaxitbekovna</i>	
Inklyuziv ta'lim va gospital pedagogikani rivojlantirishda pedagogning tashkilotchilik madaniyati: nazariy va amaliy aspektlar	22
<i>Djabborov Ma'sud Bahriddinovich, Arolova Zarina Lochin qizi</i>	
Developing Sociolinguistic Competence in Intensive Teaching of Foreign Languages to Adults	28
<i>G. R. Tolibova</i>	
Языковая выразительность и художественный мир сказки "Муха-Цокотуха"	31
<i>Garifullina Alsu Robert qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda nasriy asarlarni o'qitish	35
<i>Ibodullayeva Madina Muzaffar qizi</i>	
Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari	38
<i>Ibroximova Fotimaxon Qobiljon qizi</i>	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining nazariy-metodologik tahlili (CTP dasturi misolida).....	42
<i>Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'llari	47
<i>Islamova Fotima Shamsiddinovna, Ismoilova Mohinur Faxriddin qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari	52
<i>Mamanazar Djumayev</i>	
Turli vazn toifalaridagi dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish	61
<i>I. B. Matmuratova</i>	
Maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining o'rni	65
<i>Mutalova Dilnoza Abdurashidovna</i>	
Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning intellektuallik koeffitsientini rivojlantirish va zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish	69
<i>Normamatova Sevinch Asror qizi</i>	
Ona tilidan o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari.....	73
<i>Oloqova O'g'iljon Mamanazarovna</i>	
Oliy ta'limda adaptiv raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish modeli ...	77
<i>Quchqarova Dilnovoz Shaymaxammad qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini autentik videomateriallar asosida rivojlantirish metodikasi	81
<i>Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna</i>	
Jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini tadqiq etishning zamonaviy ijtimoiy-pedagogik ahamiyati	84
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining funksional savodxonligini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish	88
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Development of Students' Artistic Taste and Aesthetic Education as a Pedagogical Problem.....	91
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
O'smirlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari...	95
<i>Umarov Qobiljon</i>	



Ta'lim va tarbiya tizimida falsafiy yondashuvning pedagogik asoslari	98
Umurov Sharif Rajabovich	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlariga oid mashg'ulotlar ustida ishlash	102
Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi	
Методические основы развития критического мышления обучающихся при изучении информационных технологий в условиях использования искусственного интеллекта	106
Панжиева Назокат Норматомовна	
Динамика морфологической системы современного русского языка в условиях цифровизации	111
Тураева Дилфуза Даминовна	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri	116
Abdug'aniyeva Saodat Shuhrat qizi	
Blended Learning Pedagogy in University EFL Writing Courses: Effects on Linguistic Accuracy and Learner Autonomy	120
Inomidinova Dildorxon Ikramovna	
O'smirlik davrida psixologik rivojlanishning muhim jihatlari va uning determinantlari.....	125
M. S. Usmonova	
The Relationship Between Grammar Knowledge and Writing Proficiency in EFL Learners	130
Tahirova Shaxribonu	
Особенности интерпретации юридических терминов в медиатекстах.....	139
Хамидова Нигора Тулкуновна	
Sportchilarning ijtimoiy moslashuvda murabbiy shaxsining roli	142
Akbarova Maloxatoyimposhsha Saidto'ra qizi	
Raqamli asrda yoshlarning media savodxonligi: ingliz tili og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda vlog yuritishning o'rni.....	146
Akramova Yulduz Farxadovna, To'rayeva Maftuna Ravshanovna	
Naqshbandiya ta'limotida psixospiritual paradigmalarining mohiyati	151
Ashurova Gulru	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarining hamkorlikdagi o'quv faoliyatini monitoring qilish mexanizmlari.....	154
Bekmuratov Qadirbergen Quwanishbaevich	
Oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish.....	158
Hotamov Lochinbek Uktam o'g'li	
Improving Speaking Skills Through Authentic Videos Abstract	162
Imamaliyeva Gulnoza Ulug'bekovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi (pedagogik ritorika fani misolida).....	168
Ismoilov Muhammadkarim Miraxmat o'g'li	
Boshlang'ich ta'limda kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirishning texnologik asoslari (2-sinf rus tili darslari misolida)	170
Jabborova Muslima Toxirovna	
Pedagogik amaliyot jarayonida talabalarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning innovatsion mexanizmlari	175
Karimova Barno Ergashevna	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari	178
Mamanazar Djumayev	
Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning pedagogik-didaktik asoslari	187
Maxmudova Gulchiroy G'anisherovna	
Regbi mashg'ulotlari jarayonida talabalarining tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning differensial metodikasi	191
Nematov Bahodirbek Baxtiyor o'g'li	
Oila muhitida siblinglararo munosabatlarda psixologik manipulyatsiyaning namoyon bo'lish xususiyatlari...	195
Nishanova Zulfizar Yashin qizi	

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashning hozirgi holati hamda innovatsion ta'lim texnologiyalari va tpack yondashuvi asosida pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish	199
<i>Nozimabonu Tojiboyeva</i>	
Agressiv xulqning ijtimoiy-psixologik determinantlari.....	204
<i>O'ktamova Shohida Odilbek qizi</i>	
Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik afzalliklari va xavflari.....	209
<i>Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li</i>	
Kichik tadbirkorlik subyektlarining hudud eksport salohiyatini oshirishga ta'sirining ekonometrik-statistik tadqiqi	214
<i>Boymatova Dildora Olim qizi, Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga tovush yo'nalishini aniqlashtirish metodikasi.....	218
<i>Haydarov Islomjon Hatamjon o'g'li</i>	
Bolalar folklori asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	222
<i>Jo'raboyeva Mushtariy Jamoldin qizi</i>	
O'zbekistonda maktab ta'limida o'quvchilarning kasbiy salohiyatini aniqlashda sun'iy intellektdan foydalanish	228
<i>Karimova Sarvinoz Hojiqurbonovna</i>	
Aqli zaif bolalarning so'zlashuv nutqiga qo'yiladigan talablar	233
<i>N. S. Mirbabayeva</i>	
Oliy ta'lim muassasasida ta'lim va tarbiya berish metodlari	237
<i>Kamalov Rustam Azizovich</i>	
Bo'lajak logopedlarni tayyorlashda pedagogik mahoratini rivojlantirish xususiyatlari.....	241
<i>Shamsiyeva Sevara Yusupovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani rivojlantirishda loyihaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	244
<i>Tangirqulov Elmurod Aliyarovich</i>	
Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish	248
<i>Toshtemirova Sarvinoz Obidovna</i>	
Shaxsning ijtimoiy-psixologik yo'naltirilganligi guruhviy jipslikni belgilovchi individual omil sifatida	251
<i>Turayev Nurmuhammad Alibek Fozil o'g'li</i>	
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish (aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar misolida).....	254
<i>G'ofurova Umida O'tkirbek qizi</i>	
The Role of Artificial Intelligence in Creating Interactive Methods in English.....	258
<i>Urozboyeva Mavluda Shukurlo qizi</i>	
Bo'lajak muhandislarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari	262
<i>Xalikova Xurshida Abdullayevna</i>	
Suv ekotizimlarida turlar sonining kamayishini eDNA metabarkoding orqali aniqlash va uning oziq-ovqat xavfsizligidagi ahamiyati.....	267
<i>Xalilova Nigora Ixtiyorovna, Izzatilloeva Umida Kamolovna</i>	
Asalarilar sonining kamayishi va global ekologik xavf.....	272
<i>Xalilova Nigora Ixtiyorovna, Sayfulloyeva Dilnura Samandarovna</i>	
Enhancing A2 Learners' English Speaking Skills Through Short Stories With Structured Question-and-Answer Activities.....	276
<i>Xudoyberdiyeva G. Sh.</i>	
Кризис интеллигента и поиск смысла жизни в русской и мировой прозе XX Века: сравнительный анализ романов "Обломов" (И. Гончаров) и "Великий гатсби" (Ф. С. Фицджеральд) ..	280
<i>Аманова А. А., Саттарова М.</i>	
Понятие профессиональной ориентации и ее педагогическая сущность	285
<i>Каримова Наргиза Абдугафуровна</i>	
Talabalarning sun'iy intellektli ta'limiy vositalarni loyihalash kompetentligini shakllantirishning pedagogik shartlari	289
<i>Toxirov Feruz Jamoliddinovich</i>	



Maktab ta'lim tizimida STEAM yondashuvini joriy etishda loyiha boshqaruvining roli va samaradorligi 293 Avalboyeva Mavluda Abdumalikovna	293
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion mexanizmlari 300 Xodjayeva Matlyuba Rustamovna	300
Biologiya darslarida interaktiv metodlar orqali o'quvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlashini rivojlantirish 304 Hayitov Abdurasul Eshdavlatovich, Anvarjonova Odinaxon Xayrullo qizi, Rahimova Fazilat Akrom qizi	304



BOLALAR FOLKLORI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING BADIY- IJODIY QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURIYATI

Jo'raboyeva Mushtariy Jamoldin qizi

Namangan davlat universiteti an'anaviy xonandalik va cholg'u ijrochiligi kafedrası o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishda bolalar folklorining tutgan o'rni hamda uning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Globalashuv sharoitida yosh avlodni milliy qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi va an'anaviy san'at ruhida tarbiyalash pedagogika fani oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. Maqolada boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning psixologik va yosh xususiyatlari inobatga olingan holda, xalq o'yinlari, allalar, topishmoqlar, tez aytishlar va ertaklarning ularning estetik didi, kreativ fikrlashi hamda nutqiy faolligini oshirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, an'anaviy musiqiy meros va cholg'u ijrochiligi elementlarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish orqali o'quvchilarning badiiy-ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish bo'yicha metodik tavsiyalar hamda amaliy mexanizmlar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bolalar folklori nafaqat estetik tarbiya vositasi, balki o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi va milliy o'zligini anglashi uchun ham muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: bolalar folklori, boshlang'ich sinf o'quvchilari, badiiy-ijodiy qobiliyat, ijtimoiy-pedagogik zaruriyat, an'anaviy xonandalik, milliy qadriyatlar, kreativ fikrlash, estetik tarbiya, xalq og'zaki ijodi, integratsiyalashgan ta'lim.

Abstract: This article scientifically substantiates the role of children's folklore and its socio-pedagogical significance in shaping and developing the artistic and creative abilities of primary school students within the modern educational system. In the context of globalization, educating the younger generation in the spirit of national values, folklore, and traditional art is one of the most pressing tasks facing pedagogical science. Taking into account the psychological and age-related characteristics of primary school children, the article analyzes the potential of folk games, lullabies, riddles, tongue twisters, and fairy tales in enhancing their aesthetic taste, creative thinking, and speech activity. Furthermore, methodological recommendations and practical mechanisms have been developed to unlock students' artistic and creative potential through the integration of elements of traditional musical heritage and instrumental performance into the educational process. The results of the study indicate that children's folklore serves not only as a means of aesthetic education but also as an important foundation for students' social adaptation and the development of national self-awareness.

Key words: children's folklore, primary school students, artistic and creative abilities, socio-pedagogical significance, traditional singing, national values, creative thinking, aesthetic education, oral folk art, integrated education.

Аннотация: В данной статье научно обоснованы роль детского фольклора и его социально-педагогическая значимость в формировании и развитии художественно-творческих способностей учащихся начальных классов в современной системе образования. В условиях глобализации воспитание молодого поколения в духе национальных ценностей, устного народного творчества и традиционного искусства является одной из наиболее актуальных задач педагогической науки. С учётом психологических и возрастных особенностей детей младшего школьного возраста в статье анализируются возможности народных игр, колыбельных песен, загадок, скороговорок и сказок в развитии их эстетического вкуса, креативного мышления и речевой активности. Также разработаны методические рекомендации и практические механизмы раскрытия художественно-творческого потенциала учащихся посредством интеграции элементов традиционного музыкального наследия и инструментального исполнительства в образовательный процесс. Результаты исследования показывают, что детский фольклор служит не только средством эстетического воспитания, но и важной основой для социальной адаптации и формирования национального самосознания учащихся.

Ключевые слова: детский фольклор, учащиеся начальных классов, художественно-творческие способности, социально-педагогическая значимость, традиционное пение, национальные ценности, креативное мышление, эстетическое воспитание, устное народное творчество, интегрированное обучение.



KIRISH

Global raqamlashtirish, axborot oqimining jadallashuvi va texnologik transformatsiyalar davrida yosh avlodning ma'naviy-intellektual qiyofasini shakllantirish, ularda milliy o'zlikni anglash tuyg'usi hamda kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish eng muhim ijtimoiy-pedagogik vazifalardan biriga aylandi^[1]. Zamonaviy ta'lim paradigmasi boshlang'ich sinf o'quvchilariga nafaqat tayyor akademik bilimlarni singdirishni, balki ularning yashirin ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish va badiiy-estetik tafakkurini yuksaltirishni ham talab etmoqda. Boshlang'ich maktab yoshi (6-10 yosh) inson shaxsining emotsional, sensor va estetik sohalari eng sezgir (sensitiv) rivojlanadigan poydevor davri hisoblanadi. Aynan shu bosqichda bolaning dunyoqarashi uning badiiy va kreativ faoliyati orqali shakllanadi. Biroq bugungi kunda yoshlarning virtual olamga, gadjetlarga va g'arb ommaviy madaniyatiga haddan tashqari bog'lanib qolishi natijasida ularning milliy madaniy ildizlardan, jonli ijro an'analaridan hamda xalq og'zaki ijodi namunalaridan uzoqlashayotgani kuzatilmoqda. Bu holat boshlang'ich ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarga tayangan, xususan, bolalar folklorining ulkan pedagogik imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda darslarni tashkil etishning ijtimoiy zaruriyatini yuzaga keltirmoqda^[2].

Bolalar folklori (allalar, o'yin qo'shiqlari, topishmoqlar, tez aytishlar, ertaklar va masallar) asrlar davomida xalq pedagogikasining eng mukammal tarbiya vositalaridan biri bo'lib xizmat qilgan. Uning o'quvchilarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o'ziga xosligi va zaruriyati quyidagi pedagogik omillar bilan belgilanadi: bolalar folklorining sinkretik tabiati o'zida so'z san'ati, ohang (musiqa) va ritmik harakatlarni uyg'unlashtiradi. Mazkur uyg'unlik boshlang'ich sinf o'quvchisining psixofiziologik tabiatiga (obrazli fikrlash, hissiyotga beriluvchanlik va harakatchanlik) to'liq mos keladi hamda uning nutqiy, musiqiy va badiiy tasavvurini bir vaqtning o'zida faollashtiradi. Topishmoqlar, tez aytishlar va matalli o'yinlarning kreativlik va evristik salohiyati bolani yashirin analogiyalarni topishga, mantiqiy hamda kreativ yechimlarni izlashga undaydi. Bu jarayon o'quvchini reproduktiv (yodlash) faoliyatdan produktiv (yangi g'oya va obraz yaratish) faoliyatga olib o'tadi. Jamoaviy folklor o'yinlari va aytishuvlarining ijtimoiy moslashuv (sotsializatsiya) imkoniyatlari esa dars jarayonida o'quvchilar o'rtasida hamkorlik, empatiya, sog'lom raqobat hamda ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi^[3]. Shu nuqtai nazardan, bolalar folklorini shunchaki adabiy matn yoki o'tmish merosi sifatida emas, balki boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy-ijodiy faoliyatini (an'anaviy xonandalik, cholg'u ijrochiligi, sahnalashtirish va improvizatsiya) harakatga keltiruvchi yetakchi pedagogik mexanizm sifatida ta'lim tizimiga integratsiya qilish bugungi kunda ham ijtimoiy, ham ilmiy-pedagogik jihatdan dolzarb va zarur hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ta'lim-tarbiya jarayonida xalq og'zaki ijodi, xususan, bolalar folklori imkoniyatlaridan foydalanish muammosi uzoq yillardan buyon falsafa, psixologiya, pedagogika va musiqashunoslik fanlari doirasida fundamental tarzda tadqiq etib kelinmoqda. Ushbu muammoning o'rganilish darajasini shartli ravishda uchta yirik yo'nalishga ajratib tahlil qilish mumkin. Ijodkorlik va kreativlik muammosining psixologik-pedagogik asoslari badiiy-ijodiy qobiliyatlarning tabiati hamda ularning ontogenezdagi rivojlanish qonuniyatlari bilan bog'liq bo'lib, mazkur masala jahon psixologiya fani namoyandalari tomonidan keng tadqiq etilgan. Jumladan, L.S. Vygotskiy o'zining "Bolalik yoshidagi tasavvur va ijodkorlik" nomli fundamental asarida bolaning ijodiy faolligi uning hayotiy tajribasi va atrof-muhitdan olgan taassurotlari ko'lamiga bevosita bog'liqligini isbotlagan.

Olimning ta'kidlashicha, boshlang'ich maktab yoshi bolada ijodiy tasavvur (voobrajeniy) jadal shakllandigan eng qulay (sensitiv) davr hisoblanadi. Xorijiy tadqiqotchilar J. Gilford va E.P. Torrens kreativlikni divergent (noodatiy, ko'p tarmoqli) fikrlash mahsuli sifatida baholab, uning asosiy ko'rsatkichlari sifatida fikrning tezkorligi, moslanuvchanligi va originalligini ko'rsatib o'tganlar. Mazkur nazariyalar boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodkorlikni rivojlantirish uchun ularga doimiy ravishda reproduktiv (yodlashga asoslangan) topshiriqlar emas, balki evristik (izlanishga yo'naltirilgan) muhit yaratish zarurligini ko'rsatadi.

Mahalliy fanda o'zbek bolalar folklorining tabiati, janrlar tasnifi va ularning xalq pedagogikasidagi o'rni professor O. Safarov tomonidan atroflicha o'rganilgan. O. Safarov bolalar folklorini shunchaki adabiy meros emas, balki bolaning tug'ilganidan boshlab voyaga yetguniga qadar uning ruhiyati, tili va ma'naviyatini shakllantiruvchi universal sinkretik tizim sifatida asoslab bergan.

Shuningdek, boshlang'ich ta'limda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish, darslarda o'quvchilarning nutqi va tafakkurini boyitish masalalari K. Qosimova, S. Matchonov va H. G'ulomova kabi metodist olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ularning ishlarida folklor asosan adabiy ta'lim, ya'ni matn bilan ishlash, so'z boyligini oshirish va axloqiy tarbiya vositasi sifatida tahlil qilingan. Biroq ushbu tadqiqotlarda bolalar folklorining musiqiy komponenti hamda uning cholg'u ijrochiligi bilan integratsiyasi masalasi yetarli darajada yoritilmagan.

Musiqiy-estetik tarbiya hamda an'anaviy ijrochilik muammolari musiqiy pedagogika sohasida alohida yo'nalishni tashkil etadi. Professor O. Ibrohimov va S. Yo'ldoshevlarining ilmiy ishlarida o'zbek an'anaviy musiqasi,

maqom san'ati va xalq kuylarining yoshlar musiqiy tafakkurini shakllantirishdagi badiiy-estetik imkoniyatlari ochib berilgan.

Musiqqa pedagogikasining xalqaro tajribasiga murojaat qiladigan bo'lsak, taniqli bastakor va pedagog Karl Orff o'zining "Schulwerk" pedagogik tizimida elementar musiqqa tarbiyasini aynan bolalar folklori (sanamalar, aytishuvlar, o'yin qo'shiqlari) hamda oddiy cholg'ularda ritmik improvizatsiya qilish asosida qurgan. K. Orff yondashuvi folklor va cholg'u ijrochiligi sintezi bolalardagi musiqiy eshituv qobiliyati hamda kreativlikni samarali rivojlantiruvchi vositalardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bolalar folklori pedagogikada asosan adabiy matn sifatida (O. Safarov, K. Qosimova), an'anaviy musiqqa esa ko'proq professional ijrochilik va tinglash obyekti sifatida (O. Ibrohimov) alohida-alohida o'rganib kelingan. Biroq aynan boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida bolalar folklorini an'anaviy xonandalik va elementar cholg'u ijrochiligi (doira, qoshiqlar, safoil) bilan integratsiya qilishning yaxlit ijtimoiy-pedagogik tizimi tizimli ravishda tadqiq etilmagan.

Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi ham aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga hamda xalq amaliy san'atini zamonaviy interaktiv metodikalar bilan uyg'unlashtirishga qaratilganidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagogika va psixologiya fanlari kesishmasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish shaxs kamolotining fundamental asosi sifatida qaraladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning badiiy-ijodiy qobiliyati ularning borliqni estetik idrok etishi, his-tuyg'ularini badiiy obrazlar (tovush, harakat, so'z, rasm) orqali ifodalashi hamda kutilmagan va original kreativ yechimlarni topish imkoniyati bilan tavsiflanadi. Bu yoshdagi bolalarda psixofiziologik jihatdan o'ng yarim shar faolligi, ya'ni emotsional-obrazli tafakkur yetakchilik qiladi. Shu sababli ularga mavhum qoidalar yoki quruq sxemalardan ko'ra jonli, ohangdor va dinamik obrazlar yaqinroqdir. Badiiy-ijodiy qobiliyatlarning tarkibiy qismlariga evristik-kreativ komponent, hissiy-estetik komponent hamda amaliy-ijrochi komponent kiradi.

Evristik-kreativ komponent muammoli vaziyatlarda noodatiy yechim topish va tasavvur olamini kengaytirishni nazarda tutadi. Hissiy-estetik komponent san'at asarlari, ohang va so'z go'zalligini qalban his qilish bilan bog'liq. Amaliy-ijrochi komponent esa egallangan ko'nikmalarni musiqiy ijro, nutq yoki sahna ko'rinishlarida erkin namoyon eta olishni ifodalaydi [5-6].

Zamonaviy boshlang'ich ta'lim oldida turgan muammolardan biri shundaki, intellektual yuklamaning ortishi ko'p hollarda bolaning emotsional va ijodiy olamini cheklab qo'yadi. Boladagi psixologik to'siqlarni (noto'g'ri gapirishdan qo'rqish, qoliplashgan fikrlashga berilish) bartaraf etish uchun ta'lim jarayoniga tabiatan erkin va o'yin xarakteriga ega bo'lgan vositalarni olib kirish zarur. Shu jihatdan bolalar folklori eng maqbul pedagogik harakatlantiruvchi kuchlardan biri sifatida namoyon bo'ladi [4].

TAHLIL VA NATIJALAR

Bolalar folklori xalq donishmandligining bolalar ruhiyatiga moslashtirilgan, asrlar davomida shakllangan badiiy tizimi hisoblanadi. U nafaqat adabiy matn, balki pedagogik, musiqiy va ijtimoiy elementlarning mukammal sintezidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodkorligini rivojlantirishda folklor janrlarining har biri o'ziga xos pedagogik funksiyani bajaradi. Alla va beshik qo'shiqlari garchi go'daklik davriga xos janr bo'lsa-da, boshlang'ich sinflarda ularning ohang strukturasi va lirik kayfiyati bolalarda musiqiy eshituv qobiliyatini rivojlantirish, tovush tebranishlarini his qilish hamda ichki xotirjamlikni shakllantirishga xizmat qiladi. O'quvchilar dars jarayonida allalar ohangiga mos ravishda mustaqil matn yaratishlari yoki improvizatsiya qilishlari mumkin [7].

O'yin qo'shiqlari va chittigullar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun alohida ahamiyat kasb etadi, chunki harakat ularning tabiiy ehtiyojlaridan biridir. "Oq terakmi, ko'k terak", "Kim chaqqon?", "Lanka" kabi jamoaviy va musiqiy o'yinlar bolalarda ritm tuyg'usini, ya'ni ichki va tashqi tempni his qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Ritmni his qilish esa musiqqa, she'riyat va raqs kabi barcha ijodiy faoliyat turlarining poydevori hisoblanadi. Topishmoqlar va matallar bolaning intellektual-ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi samarali vositalardan biridir. Topishmoq metaforik fikrlashga asoslangan bo'lib, bola uning javobini topish jarayonida narsa va hodisalar o'rtasidagi noodatiy bog'liqliklarni aniqlaydi. Natijada kreativ fikrlashning muhim ko'rsatkichlari bo'lgan divergent tafakkur va mustaqil mushohada qilish qobiliyatlari rivojlanadi. Tez aytishlar va sanamalar esa o'quvchilarning nutq apparatini rivojlantirish, diksiyasini yaxshilash bilan bir qatorda, ularni so'z bilan ijodiy ishlashga undaydi. Bolalar tez aytishlar ritmiga mos ravishda qarsak chalish yoki oddiy ritmik zarblar berish orqali musiqiy va nutqiy ko'nikmalarni uyg'un holda rivojlantiradilar.

An'anaviy xonandalik va cholg'u ijrochiligi vositasida folklor namunalarini integratsiyalash metodikasi boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu



jarayon faqat folklor matnlarini o'qish bilan cheklanib qolmasligi, balki an'anaviy xonandalik va cholg'u ijrochiligi elementlarini ham qamrab olishi zarur. Musiqa, milliy cholg'ular va jonli ijro bolaning emotsional qabul qilish darajasini oshiradi hamda ijodiy faolligini kuchaytiradi. Pedagogik jarayonda mazkur integratsiyani bir necha metodik bosqichlar orqali amalga oshirish mumkin ^[8-9].

Evristik eshitish va idrok qilish metodida o'qituvchi o'zbek milliy cholg'ularida (dutor, doira, nay, chang) bolalar folklori namunalarini jonli ijro etadi. O'quvchilar esa musiqaning xarakteridan kelib chiqib uning mazmunini tasavvur qiladilar, rasmda ifodalaydilar yoki unga mos harakatlarni yaratadilar. Bu jarayon bolalarda musiqiy-obrazli assotsiatsiyalarni shakllantiradi. Elementar cholg'u ijrochiligi, ya'ni improvizatsiya metodida boshlang'ich sinf o'quvchilariga doiracha, qoshiqlar, safoil va qayroq kabi oddiy ritmik cholg'ular tarqatiladi. O'quvchilar folklor qo'shiqlari yoki ertaklarni ijro etish davomida ushbu cholg'ular yordamida mustaqil ravishda ritmik jo'rlik yaratadilar. Natijada ularning eshitish qobiliyati, ritm sezgisi va jamoada ijodiy faoliyat olib borish ko'nikmalari rivojlanadi. Sinf teatri va sahnalashtirish metodida esa ertaklar va o'yin qo'shiqlari kichik musiqiy spektakllar shakliga keltiriladi. Masalan, "Zumrad va Qimmat" yoki "Sichqonvoyning dumi" kabi ertak va folklor namunalari an'anaviy qo'shiqlar hamda cholg'u kuylari bilan boyitilgan holda sahnalashtiriladi. Bunday faoliyat jarayonida bola aktyor, xonanda va ijrochi sifatida o'zining ko'p qirrali badiiy imkoniyatlarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladi ^[10].

Bolalar folklori asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni yaxlit ijtimoiy-pedagogik tizimni tashkil etadi. Ushbu tizim o'z tarkibiga maqsad, vositalar, metodlar va natijalarni qamrab oladi. Tizimning asosiy maqsadi o'quvchilarning badiiy-estetik didini shakllantirish, kreativ tafakkurini rivojlantirish va milliy madaniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashdan iborat. Tizimning vositalari sifatida bolalar folklori janrlari, milliy musiqa namunalari hamda an'anaviy cholg'u ijrochiligi elementlari xizmat qiladi. Metodlar sifatida evristik eshitish, improvizatsiya, sahnalashtirish, jamoaviy ijod va interaktiv o'yinlardan foydalaniladi. Natijada o'quvchilarning musiqiy-estetik tafakkuri, kommunikativ madaniyati, kreativ fikrlashi va ijtimoiy faolligi rivojlanadi. Mazkur tizimning muhim afzalligi shundaki, u ta'lim, tarbiya va rivojlantirish vazifalarini yagona pedagogik jarayonda uyg'unlashtiradi hamda o'quvchilarning individual qobiliyatlarini tabiiy ravishda yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

1-jadval: Bolalar folklori asosida badiiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik modeli



Ushbu model boshlang'ich sinf darslarida ("Musiqa madaniyati", "Ona tili va o'qish savodxonligi", "Tasviriy san'at") quruq yodlash metodidan voz kechib, bolani darsning faol ishtirokchisiga aylantirishga xizmat qiladi. Cholg'u ijrochiligi yo'nalishida bola doira, qoshiq yoki safoil kabi oddiy cholg'ularda ertak qahramonlarining harakatlariga (masalan, ayiqning yurishi, qushning uchishi) mos ravishda ritmlar yaratadi. Bu jarayon uning musiqiy va ijodiy qobiliyatlarini uyg'un holda rivojlantiradi. Xonandalik yo'nalishida esa xalq o'yin qo'shiqlarini ijro etish jarayonida bolalar ohangni improvizatsiya qiladilar, bu esa ularning ovoz apparati, musiqiy eshituv qobiliyati va musiqiy xotirasini rivojlantiradi. Bolalar folklori (alla, tez aytish, maqol, topishmoq, ertak va bolalar o'yin qo'shiqlari) shunchaki ermak emas, balki asrlar davomida sinalgan xalq pedagogikasining fundamental

vositasidir. Uning bugungi kunda ta'lim jarayoniga keng integratsiya qilinishi bir qator ijtimoiy-pedagogik zaruriyatlar bilan izohlanadi. Avvalo, globallashuv sharoitida o'quvchilarni turli yot madaniy ta'sirlardan himoya qilish, ularda milliy o'zlik, ona tiliga muhabbat va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, zamonaviy raqamli texnologiyalar va gadjetlardan haddan tashqari foydalanish bolalarda tayyor axborotni qabul qilish ko'nikmasini kuchaytirib, mustaqil tasavvur hamda ijodiy fikrlashning rivojlantirishini cheklashi mumkin. Folklor esa o'quvchini faol tasavvur qilishga, yangi g'oyalar yaratishga va ijodkorlikka undaydi. Bundan tashqari, boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan nutq nuqsonlari, lug'at boyligining yetarli emasligi va muloqotga kirishishdagi qiyinchiliklarni ertaklar, tez aytishlar hamda xalq o'yinlari vositasida tabiiy ravishda bartaraf etish imkoniyati mavjud.

Tadqiqot doirasida muammoning mohiyatini chuqurroq anglash maqsadida pedagogik va psixologik qonuniyatlar tahlil qilindi. Psixologik nuqtai nazardan, L.S. Vigotskiy va J. Gilford konsepsiyalariga ko'ra, kichik maktab yoshidagi bolalarda vizual-obrazli fikrlash va tasavvur (voobrajeniy) yetakchi o'rin tutadi.

J. Gilfordning divergent fikrlash nazariyasiga muvofiq, topishmoqlar va xalq o'yinlari bolalarda muammolarga turli nuqtai nazardan yondashish hamda nostandart yechimlarni topish qobiliyatini rivojlantiradi.

Pedagogik jihatdan esa K. Orff tizimi va milliy pedagogika tajribasi musiqiy hamda badiiy folklor elementlarini dars jarayoniga integratsiya qilish ta'lim samaradorligini oshirishini ko'rsatadi. Masalan, "Ona tili va o'qish savodxonligi" hamda "Musiqqa madaniyati" darslarida bolalar folkloridan foydalanilganda o'quvchi matn nafaqat o'qiydi, balki uning ohangini his qiladi, obrazga kiradi va uni sahnalashtirish orqali ijodiy talqin etadi.

Ekspiriment jarayonida boshlang'ich sinf darslarida bolalar folklorining turli janrlaridan tizimli ravishda foydalanildi. Jumladan, topishmoq va maqollar mantiqiy fikrlash hamda badiiy tasavvurni rivojlantirishga, tez aytishlar va sanamalar nutq texnikasi, diksiya hamda ritm tuyg'usini shakllantirishga, "Oq terakmi, ko'k terak", "Chittigul" kabi musiqiy o'yin qo'shiqlari esa jismoniy faollik, jamoada ishlash ko'nikmalari va emotsional erkinlikni ta'minlashga xizmat qildi.

Tadqiqotning amaliy samaradorligini aniqlash maqsadida 2-3-sinf o'quvchilari o'rtasida nazorat guruhi (N-guruh) va tajriba guruhi (T-guruh) shakllantirildi. Tajriba guruhida mashg'ulotlar bolalar folklori elementlari asosida, ya'ni interaktiv xalq o'yinlari, rolli o'yinlar va ertaklarni sahnalashtirish shaklida tashkil etildi. O'quvchilarning badiiy-ijodiy qobiliyatlari kreativlik (fikir tezligi va originalligi), kommunikativlik (nutq va muloqot madaniyati) hamda badiiy-estetik idrok (ohang va obrazni his qilish) mezonlari asosida baholandi. Olingan natijalar tajriba guruhidagi o'quvchilarda barcha mezonlar bo'yicha ijobiy o'sish kuzatilganligini ko'rsatdi. Ko'rsatkichlarning aniq natijalari quyidagi solishtirma jadvalda keltiriladi.

2-jadval: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy-ijodiy qobiliyatlari rivojlanish ko'rsatkichlarining nazorat va tajriba guruhlari bo'yicha qiyosiy tahlili

Baholash mezonlari	Nazorat guruhi (An'anaviy dars)	Tajriba guruhi (Folklor metodikasi)	O'sish ko'rsatkichi (Farq)
Kreativlik va originallik	48%	76%	+28%
Nutqiy boylik va kommunikativlik	52%	82%	+30%
Badiiy-estetik idrok (Emotsionallik)	55%	88%	+33%

Natijalar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy metodlar asosida ta'lim olgan nazorat guruhi o'quvchilariga nisbatan bolalar folklori elementlari integratsiya qilingan tajriba guruhi o'quvchilarida badiiy-ijodiy qobiliyatlar sezilarli darajada rivojlangan. O'tkazilgan tahlillar va olingan natijalar bolalar folklorining boshlang'ich sinf ta'limidagi o'rni va pedagogik imkoniyatlari nihoyatda yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Pedagogik nuqtai nazardan, bolalar folklori o'quvchilarni dars jarayonidagi bir xillik va zerikishdan xalos etadi, ularning ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi hamda ichki ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi ^[10-11]. Ijtimoiy jihatdan esa maktabga ilk qadam qo'ygan bolalarda jamoada ishlash, o'zaro hamkorlik qilish, bir-birini tinglash va milliy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish ko'nikmalari shakllanadi.

XULOSA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy-ijodiy qobiliyatlarini bolalar folklori asosida rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyatini ilmiy-nazariy hamda metodik jihatdan tadqiq etish natijasida bir qator muhim xulosalarga kelindi. Avvalo, globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan zamonaviy jamiyatda bolalar folklori shunchaki o'tmish merosi emas, balki yosh avlodni ma'naviy bo'shliqlardan asrash, ularda milliy identiklik (o'zlikni anglash), vatanparvarlik va milliy qadriyatlarga sodiqlik tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy-pedagogik vosita hisoblanadi. Folklor asosida tashkil etilgan ta'lim jamiyatning kreativ fikrlaydigan, ma'naviy barkamol va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalangan shaxsni voyaga yetkazishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi ^[12-13].



Tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixofiziologik xususiyatlari, jumladan, obrazli tafakkur, hissiyotga beriluvchanlik va yuqori harakatchanlik bolalar folklorining sinkretik tabiatiga, ya'ni so'z, ohang va harakat uyg'unligiga to'liq mos kelishini ko'rsatdi. Dars jarayonida ertaklar, topishmoqlar, allalar va o'yin qo'shiqlaridan foydalanish o'quvchilardagi psixologik to'siqlarni, xususan, xato qilishdan qo'rqish holatini kamaytiradi hamda ularni reproduktiv (yodlashga asoslangan) faoliyatdan produktiv (yangi g'oya va obraz yaratishga yo'naltirilgan) faoliyatga olib o'tadi.

Shuningdek, folklor namunalarini an'anaviy xonandalik va elementar cholg'u ijrochiligi (doira, qoshiqlar, safoil) bilan integratsiyalash o'quvchilarning badiiy-ijodiy salohiyatini yanada yuksaltirishi aniqlandi. Jonli musiqiy ijro, ritmik mashqlar va improvizatsiyalar bolalarning musiqiy eshituv qobiliyati, sensor idroki, emosional dunyosi hamda mantiqiy va kreativ tafakkurini uyg'un ravishda rivojlantiradi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, ta'lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi: boshlang'ich sinflarning "Musiqqa madaniyati", "Ona tili va o'qish savodxonligi" hamda "Tasviriy san'at" fanlari uchun bolalar folkloriga asoslangan integratsiyalashgan o'quv dasturlari va metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish; umumta'lim maktablarida darsdan tashqari faoliyat sifatida an'anaviy cholg'u ijrochiligi elementlariga tayangan "Folklor va sinf teatri" to'garaklarini tizimli ravishda tashkil etish; pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida bolalar folklorini zamonaviy interaktiv metodlar, jumladan, K. Orff tizimi va evristik yondashuvlar asosida o'qitish bo'yicha maxsus o'quv kurslarini joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, bolalar folklori boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ulkan pedagogik imkoniyatlarga ega bo'lgan manba hisoblanadi. Undan maqsadli va tizimli foydalanish ta'lim sifati hamda samaradorligini yangi bosqichga ko'tarishga, shuningdek, ijodkor, ma'naviy yetuk va milliy qadriyatlarga sodiq avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 464 b. <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020-yildagi 637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. Safarov O. O'zbek bolalar folklori. – Toshkent: "O'qituvchi", 1984. – 216 b.
4. Safarov O. O'zbek xalq bolalar poetik ijodi. – Toshkent: "Fan", 1985. – 184 b.
5. Ibrohimov O.A. O'zbek xalq musiqqa ijodi (uslubiy qo'llanma). – Toshkent: O'zbekiston davlat konservatoriyasi, 2014. – 120 b.
6. Yo'ldoshev S.A. An'anaviy xonandalik va cholg'u ijrochiligi pedagogikasi. – Toshkent: "Musiqqa", 2018. – 195 b.
7. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova H. va boshqalar. Ona tili va o'qish savodxonligi o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Kamalak", 2022. – 352 b.
8. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте: Психологический очерк. – Москва: "Просвещение", 1991. – 93 с.
9. Выготский Л.С. Психология искусства. – Москва: "Искусство", 1986. – 573 с.
10. Торренс Е.П. Диагностика креативности и особенности развития творческого мышления в младшем школьном возрасте // Вопросы психологии. – Москва, 2011. – № 4. – С. 45-52.
11. Гилфорд Дж. Три стороны интеллекта // Психология мышления / Под ред. А.М. Матюшкина. – Москва: "Прогресс", 1965. – С. 433-456.
12. Орф К. Шульверк. Элементарное музыкальное воспитание (перевод и общая редакция Л. Баренбойма). – Ленинград: "Музыка", 1978. – 160 с.
13. Жирков Л.Н. Роль детского фольклора в формировании коммуникативных навыков младших школьников // Педагогика и психология образования. – Санкт-Петербург, 2019. – № 2. – С. 78-85.
14. Madayev O., Aslanova X. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: "Turon-Iqbol", 2010. – 208 b.
15. Jumanov L.N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq og'zaki ijodi vositasida estetik tarbiyalash tizimi // Pedagogik mahorat jurnali. – Buxoro, 2023. – № 5. – B. 112-117.
16. Juraboeva M.J. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy-badiiy qobiliyatlarini an'anaviy ijrochilik vositasida rivojlantirish // Ilm-fan va innovatsion rivojlanish ilmiy jurnali. – Toshkent, 2025. – № 2. – B. 64-71.
17. Smith J.A. Creative Thinking and Aesthetics in Primary Education: Integrating Folk Traditions // International Journal of Pedagogical Studies. – London, 2022. – Vol. 14, Issue 3. – Pp. 201-215.
18. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 2011. – 467 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.